

MA'RIFATCHILIK ADABIYOTIDA VATANPARVARLIK MASALALARI

Nuraliyeva Sitora Islombek qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ma'rifat va vatanparvarlik tushunchalariga izoh berilgan. Ma'rifatchilik adabiyotida vatanparvarlik masalalari hamda uning yoshlar ongiga ta'siri keng tarzda yoritilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ma'rifat, vatanparvarlik, jamiyat, ma'rifatchilik adabiyoti, milliy o'zlik, mustaqillik.

Annotation. This article explains the concepts of martyrdom and patriotism. Disambiguation pages with short descriptions

Keywords: Ma'rifat, patriotism, society, ma'rifat literature, national.

Аннотация. В этой статье объясняются понятия мученичества и патриотизма. Страницы с краткими описаниями

Ключевые слова: марфат, патриотизм, общество, литература марфат, национальная идентичность, независимость.

Ma'rifat - kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim tarbiyadir. Bu keng tushuncha hisoblanadi. Har bir insonda marifat va madaniyat tushunchalari mujassam bo'lsagina atrof-dagilarga, xalqiga, eliga bo'lgan vatanparvarlik hislari ortib boradi. Ma'rifat kishilarni jaholatdan qutqaradi, buzuq ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob egasi bo'lishga yordam beradi. Marifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo'ladi.

Milliy vatanparvarlik haqida so'z borganda, bu o'zbek xalqining qoniga singib ketgan iymon, insof, mehr- muhabbat, oqibat, or- nomus, ona yurtiga, o'z eliga bo'lgan sadoqat, milliy qadriyatlar, g'oyalar, qarashlar tushuniladi. Vatan tushunchasini har kim har xil ma'noda tushunar ekan vatanparvarlik tushunchasini ham har bir kishi o'z aqliy qobiliyatidan kelib chiqib tushunadi. Vatanparvarlik mavzusida juda ko'p olim-u ulamolarimizning ijod namunalari-yu, bu haqidagi fikrlari bizgacha yetib kelgan. Jumladan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek va boshqa ajdodlarimizning ijod namunalari hozirgi kunga qadar o'z aksini topib, yoshlar tarbiyasida ibrat, namuna sifatida qo'llanilib kelinmoqda. Islom Karimov „Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" asarida xalqimizdan yetishib chiqqan uning dunyoga ma'rifatli millat sifatida tanilishiga ulkan hissa qo'shgan ijodkorlar xizmatiga yuksak baho berar ekan, jumladan, mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyni quyidagicha

ta'riflaydi: „Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”.¹ Ko‘ryapsizki, birinchi prezidentimiz ham bobomiz Alisher Navoiy haqida yuksak fikrlarni keltirib o‘tganlar. Buyuk mutafakkir, so‘z mulkingning sultoni bobomiz Alisher Navoiy yozgan asarlar, asrlar osha avlodlar xotirasida abadiy qolmoqda. Uning asarlarida pand-nasihat, yurtga bo‘lgan ishonch, ma‘naviyat, marifat hamda vatanparvarlik tuyg‘ulari yaqqol sezilib turadi.

Ta‘lim muassasalarida ham vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, tarbiyalash asosiy maqsadga aylanmoqda. Vatanparvarlik his-tuyg‘ularini shakllantirishda O‘zbekistonning davlat ramzlari, bayroq, gerb, madhiya, o‘zbek tili, Konstitutsiya va boshqa shu millatga, shu zaminga xos bo‘lgan fazilatlar o‘tkazilayotgan madaniy-ma‘rifiy faoliyatda o‘z aksini topmoqda. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi davlat darajasidagi masalalardan bo‘lganligi bois, bunday maqsadlarga aniq rejalashtirilgan yo‘llar orqali borish maqsadga muvofiqdir.

Ma‘rifatchilik adabiyoti asosan vatanparvarlik g‘oyalarini ilgari surgan muhim adabiy oqimlardan biridir. Bu yo‘nalish asosan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllanib, jamiyatni ilm- fan, ma‘rifat va taraqqiyot orqali yurti o‘zgarishga chaqirgan. Ma‘rifatchi yozuvchi va shoirlar xalqni johillik, qoloqlik va mustamlakachilik zulmidan qutqarish uchun vatanparvarlik ruhidagi asarlar yaratganlar. Bulardan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat singari ma‘rifatchilar asarlarida milliy uyg‘onish g‘oyasini ilgari surganlar. „Padarkush" dramasida Behbudiy ilmga befarq bo‘lish fojiali oqibatlariga olib kelishini ko‘rsatadi. Eslab qoling: „padarkush" so‘zi lug‘aviy jihatdan „ota qotili" degan ma‘noni anglatadi. Dramada jaholat, ilmsizlik, tarbiyasizlikka qarshi ma‘rifat ulug‘lanadi. Muallif „o‘qimagan bolaning holi" ni ayanchli oqibatlarini bayon etishni maqsad qilib oladi. Behbudiy yoshlar ta‘lim olishi va kamolga yetishida ijtimoiy va oilaviy muhit alohida o‘rin tutishini „Padarkush" dramasi negizida joylashtiradi. Unda qahramonlardan birining tilidan o‘z g‘oyasini: „Bizlarni xonavayron... bevatani va bandi qilg‘on tarbiyasizlik va johillikdir, bevatonlik, darbadarlik, asorat, faqirlik, zarurat va xorliqlar... hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir..." degan yo‘sinda bayon qiladi.² Mahmudxo‘ja Behbudiyning ushbu dramasi XX asr boshlarida yozilgan bo‘lsa-da, hozirgi kun bilan ham chambarchas bog‘liq. Chunki uning zamirida ma‘naviy-ruhiy, tarbiyaviy ma‘no yotadi. Tarbiya hech qachon eskirmaydigan hamda tugal yechimi topilishi mushkul bo‘lgan masalalardan. Insonni yoshligidan tarbiyalash lozim. Odam farzandini ham navnihol daraxtga mengzash mumkin. Uni qay tomonga yo‘naltirib tarbiyalansa, umrining oxirigacha ana shu yo‘ldan boradi. Abdulla Avloniyning „Turkiy guliston yoxud axloq" asarida Vatanga sadoqat, ona tilini sevishtirish va millatni asrab-

¹ Islom Karimov. Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch. -T.: „Ma‘naviyat", 2008.47-b.

² To‘xlijev.B, Karimov.B, Usmonova.K. Adabiyot darsligi., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi". Toshkent-2017.

avaylash g'oyalari ilgari surilgan. Abdulla Avloniy axloqiy-ta'limiy asarlari bilan o'zidan keyingi avlodni ezgulik, yuksak axloqiylik, zilolilik ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Uning „Maktab Gulistoni“ kitobidagi „Vatan“ she'ridan olingan quyidagi jummalarga e'tibor qaratsak,

Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,
Har kim sening qadring bilmas -aqli pastdur.
Onamizsan! Bizning mushfiq onamizsan!
Javlon urub yashaydurgon xonamizsan!

Yuqoridagi satrlarni Vatan haqidagi madhiya desak, mubolag'a bo'lmas. She'rni o'qir ekanmiz, ona yurtning ko'rkam, ulug'vor manzarasi ko'z oldimizga chiziladi. Uning tuyg'usi yuraklarga g'urur soladi, insonlarni go'yo darddan xalos etadi. Uni sevmaslik, qadriga yetmaslik, e'zozlamaslik bizni tubanlik sari yetaklaydi degan fikrlar namoyon bo'ladi. Marifatchilar millatni uyg'otish orqali milliy o'zlikni anglash, xalqni savodli qilish va mustaqillikka chorlash yo'lida astoydil harakat qilishgan. Masalan, Odil Yoqubov „Muzqaymoq“ hikoyasi orqali XX asr mamlakatimiz hayotida ham fojialar ham buyuk o'zgarishlar asri bo'lganini ko'rsatgan. Bu hikoyada adib Odil Yoqubov o'z otasi taqdiri misolida qatag'on davrining dahshatlarini, bolalik xotiralarini qalamga oladi. Mehnatkash, halol, sadoqatli otasining o'z xizmatlari uchun tuhmatga uchrab, qatag'on qilingani voqealarini tasvirlaydi. „Bu siyosat o'z haq-huquqini tanishni, ozodlik, erkinlikni istagan pok, halol yashagan har bir ziyoli, har bir fuqaroga qarshi qaratilgan edi“. ³ O'sha davrda tuzum shunaqa edi. Ma'rifatchilar o'sha paytdagi davrni, holatni ochiq ovozda ayta olishmagan. Faqatgina ular o'z asarlarida bunday holatni yozib xalqni uyg'otishga, ularni ilmsizlik botqog'idan chiqarishga harakat qilishgan desak adashmaymiz. Ma'rifatchi bobolarimiz jamiyatni ilmsizlik va johillikdan chiqarish orqali yurtning rivojlanishi va farovonligi yo'lida xizmat qilishni o'z vazifasi deb bilganlar.

Birinchi prezidentimiz mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab adabiyot ahliga har tomonlama yordam ko'rsatdi. Har bir sohada keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Biz yoshlar bu imkoniyatlardan oqilona foydalana olishimiz kerak. Har bir inson mana shunday mustaqil, go'zal, imkoniyatlarga to'la ona Vatanda yashayotgani uchun iftixor tuyushi hech shubhasizdir.

Xulosa qilib aytganda, hayotni bilim, aql, hunar, ruhiyat va g'ayrat oldinga siljitadi. Eng muhimi izlanishdan to'xtamasligimiz kerak. Farzandlari ma'rifatli, ma'naviyatli, o'zligini tanigan xalqning, albatta, iqboli kuladi. Komil farzandlar o'zini tug'ib katta qilgan ona Vatanining qadrini har narsadan yuksak qo'yadi. Ular uchun yurt tinchligi, vatan ravnaqi, el farovonligi yo'lida o'qib-o'rganish, mehnat va ijod qilish hayotning tub mazmuniga aylanadi. Yoshlarimiz ma'rifatparvar adiblar izidan borib ularning an'analarini davom ettirishlari kerak deb o'ylayman. Shundagina o'zini buyuk

³ Ahmedov.S, Qo'chqorov.R, Rizayev.Sh. 6-sinf adabiyot darsligi.Toshkent,„Ma'naviyat"2017.

millatning, qadimiy xalqning chinakam vorisi deb bilgan farzandlar bugun dunyoda hech kimdan kam emasligini anglab, kelajakda ham hech kimdan kam bo'lmashlikni ko'zlab harakat qiladilar desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: „Ma'naviyat", 2008. 47-b.
2. Ahmedov.S, Qo'chqorov.R, Rizayev.Sh. 6-sinf adabiyot darsligi. Toshkent „Ma'naviyat" 2017.
3. To'xliyev.B,Karimov.B,Usmonova.K.Adabiyot darsligi., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Toshkent-2017.
4. Xudoyberdiyev.E. „, Adabiyotshunoslikka kirish". Toshkent.2008.